

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH VAZIFALARI VA QONUNIYATLARI

RESPONSIBILITIES AND LAWS OF PRESCHOOL CHILDREN'S SPEECH

ОБЯЗАННОСТИ И ЗАКОНЫ РЕЧИ ДОШКОЛЬНИКОВ

JDPI magistranti Xolboyeva Feruza

Annotatsiya

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi tushunchasi bola nutqi rivojlanishining aniq holatidan kelib chiqqan holda, o‘zining etilogiyasi bo‘yicha nutq rivojlanmaganligining turli xil ko‘rinishlariga yagona pedagogik yondashuv imkoniyati haqidagi ilg‘or nuqtai nazarga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Ona tili, nutq, idrok etish, qobiliyat, bola, mashq, so‘z, ibora, talaffuz.

Аннотация

В основе концепции незавершенного речевого развития лежит передовой взгляд на возможность единого педагогического подхода к разным сторонам речевого развития по своей этиологии, исходя из конкретного состояния речевого развития ребенка.

Ключевые слова: родной язык, речь, понимание, умение, ребенок, упражнение, слово, фраза, произношение.

Annotation

The concept of incomplete speech development is based on an advanced view of the possibility of a unified pedagogical approach to different aspects of speech development in terms of its etiology, based on the specific state of the child's speech development.

Keywords: Mother tongue, speech, comprehension, ability, child, exercise, word, phrase, pronunciation.

Pedagogik fan sifatida logopediyada «nutqning to‘liq rivojlanmaganligi» tushunchasi, eshitish va intellekti normada bo‘lgan bolalarda barcha nutq kamponentlarining shakllanishi buzilishi bilan xarakterlanuvchi nutq kamchiligiga nisbatan qo‘llaniladi.

«Nutqning to‘liq rivojlanmaganligida nutqning kechroq paydo bo‘lishi, lug‘atning kambag‘alligi, agrammatizm, talaffuz kamchiliklari kuzatiladi.»

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi termini nutq rivojlanishi buzilishiga g‘oyat chuqur yondashuvni ifodalaydi va uni tahlil qilish pedagog zimmasidadir. Bunday yondoshuv mutaxassisdan katta umumbiologik va tibbiy malakani talab qiluvchi, nuqson tuzilishini patogenetik jihatdan tahlil qilishni talab qilmaydi. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish vazifalari uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg‘u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o‘zgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o‘yin, predmetlar va o‘yinchoqlar bilan tajriba o‘tkazish, qog‘ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo‘shilib ketgan, so‘ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog‘liq bo‘lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojining qondirilmasligi ular o‘rtasida emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ba‘zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig‘lab yuboruvchi bo‘lib qoladilar; boshqalari esa – negativizm, tajovuzni namoyon qilishadi. Bola hayotining to‘rtinchi yilida tengdoshi uning uchun eng avvalo,

birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, o'yindagi sherik sifatida qolaveradi.

Bola tengdoshiga eng oddiy talablar, iltimoslar bilan murojaat qiladi va tengdoshining harakatiga baho beradi. Besh yoshli bolalar tengdoshlarining hadeb u yoki bu narsani so'rab, jonga tegishini salbiy baholaydi. Besh yoshga kelib, tengdoshlari bilan muloqotga va ular bilan bolalar jamiyatini vujudga keltiradigan birgalikdagi o'yinlarga bo'lgan ehtiyoj keskin ortadi. Bola hayotining beshinchi yiliga kelib, u o'z tengdoshlari o'rtasida o'z o'rnini anglay boshlaydi. Kommunikativ qo'nikma rivojlanadi: bola salomlashadi va xayrlashadi, do'stini ismini aytib chaqiradi, to'rt-besh yoshlarga kelib – sherigini u o'ynayotgan rol nomi bilan chaqiradi («hoy, shofyor, arqon g'ildirakning tagiga tushib ketdi»). Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish bolaga o'zining «men»ini anglash imkonini uch yashar bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar:

- bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, o'z istak xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga intilishini qo'llab-quvvatlang;

- tengdoshlari ishlariga qiziqishi, o'z taassurotlarini ular bilan o'rtoqlashishni istashi, o'yin harakatlari, ro'y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini rag'batlantiring;

- bolangizning lug'at **zahirasini kishilar**, o'simliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, o'yinchoqlar, narsa-buyum qismlari (ko'ylak yengi, cho'ntaklari va yoqasi; mashina eshigi va g'ildiragi kabilar) nomlari bilan boyitib boring. Gapda so'zlarni bir-biriga to'g'ri bog'lashni (masalan, «Uyda ketdi» emas, «uyga ketdi», «Kecha boraman» emas, «Bugun boraman») o'rgatishga alohida e'tibor bering;

- bolalarni unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaff qilishga o'rgating.

Nutq maktabgacha katta yoshdagi bolaning psixologik rivojlanishi hamda dastavval xotirasi, fikrlashi, idrok etishi, hissiyoti va ehtirosini ta'minlaydigan ikkita muhim vositadir.

Birinchi qonuniyat: Ona tilidagi nutqni idrok etish qobiliyati bola nutq organlari muskullarining mashq qildirilishiga bog'liq (shuning uchun ham so'z, ibora va gaplarni talaffuz etishni takomillashtirish uchun nutq organlarini mashq qildirishga yetarli darajada e'tibor bermoq muhimdir).

Ikkinchi qonuniyat: Nutq ma'nosini tushunish bola tomonidan nutqning leksik va grammatik qonuniyatlarining o'zlashtirilishiga bog'liq.

Uchinchi qonuniyat: Nutq ifodaliligini o'zlashtirish bolada fonetika, leksika va grammatikaning ifoda vositalarini tushunishga bo'lgan moyillikka bog'liq (maktabgacha katta yoshdagi bolalarni nutq ifodaliligini tushunishga o'rgatish hamda bu hissiyotlarning bola tomonidan o'zlashtirilishiga erishish lozim).

To'rtinchi qonuniyat: Nutqni boyitish, avvalo, nutq ko'nikmalarini takomillashtirishga bog'liq (agar oldingi yosh bosqichida maktabgacha katta yoshdagi bola nutqini shakllantirish muvaffaqiyatli bo'lgan bo'lsa, undan keyingi nutqni boyitish jarayoni hamda uni o'zlashtirish oson va tez boradi). Bundan tashqari, tadqiqotchilar tomonidan nutqni boyitish jadalligi tilni his etish, bilish imkoniyatlari (sezish, xotira, idrok qilish, fikrlash), iroda kuchining rivojlanishiga ham bog'liq.

Beshinchi qonuniyat: Nutq meyorlarini o'zlashtirish tilni his etishning rivojlanishiga

Ma'lumki, ta'limda biror-bir yutuqqa erishish tarbiyaga bog'liq. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy xulq-odatlarini shakllantirishga muayyan darajada e'tibor berish lozim. Ularda yaxshilik, kamtarlik, adolatlilik, vijdonlilik to'g'risidagi axloqiy tasavvurlarni tarkib toptirish kerak. Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o'simliklar olami, suv osti dunyosi) to'g'risidagi tasavvurlarini

aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab etiladi. Nutqni rivojlantirishning samaradorligini oshirish rejasida nafaqat tevarak- atrof obyektlari ustida oddiy kuzatishlar (mushohadalar) uchun, balki ularni o'rganish uchun ham sayrlar, sayohatlar o'tkazish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., "O'qituvchi" 1993
2. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
3. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
4. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
5. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma